

MODALLIK VA UNING O'RGANILISHI HAQIDA

Yodgorova Nafisa,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU magistranti
yodgorovanafisa83@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada modallik kategoriyasi, modal ma'no, modal munosabatning ifodalanishi, modallik kategoriyasi haqidagi ta'riflar, bu hodisaning o'r ganilishiga doir ayrim ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Modallik, modallik turlari, modal ma'no, modal ma'no ifodalovchi vositalar.

MODALİTE VE ÇALIŞMASI HAKKINDA

Yodgorova Nafisa,
Şerof Raşidov adına SamDU yüksek lisans öğrencisi

Özet. Bu makalede modalite kategorisinin tanımı, modal anlam, modal ilişkilerin ifadesi ve bu olgunun incelenmesine ilişkin bazı bilgiler verilmektedir.

Anahtar kelimeler. Kiplik, kiplik türleri, kiplik anlamı, kiplik anlamını ifade etme araçları.

О МОДАЛЬНОСТИ И ЕЕ ИЗУЧЕНИИ

Ёдгорова Нафиса,
магистрант СамГУ имени Шарофа Рашидова

Аннотация. В статье приводятся определения категории модальности, модального значения, выражения модальных отношений, а также некоторые сведения по изучению этого явления.

Ключевые слова. Модальность, виды модальности, модальное значение, средства выражения модального значения.

ABOUT MODALITY AND ITS STUDY

Yodgorova Nafisa,
master's student of SamSU named after Sharof Rashidov

Abstract. This article provides definitions of the category of modality, modal meaning, expression of modal relations, the category of modality, and some information on the study of this phenomenon.

Keywords. Modality, types of modality, modal meaning, means of expressing modal meaning.

Modallik tushunchasi juda keng tushuncha bo'lib, bu hodisa nafaqat tilshunoslikda, balki mantiq ilmida ham o'r ganiladi. Modallik lingvistik tushuncha sifatida "modallik", "modallik kategoriyasi", "modal ma'nolar", "modal qurilmalar" kabi so'z va so'z birikmalari bilan ifodalanadi. O'zbek tilining izohli lug'ati'da modallik so'ziga, – "Fikrning voqelikka bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriya", – deb izoh berilgan [6, 469 b.]. Azim Hojiyevning "Lingvistik terminlar lug'ati'da modallik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Modallik (fran. modalité<lot modus – mayl) so'zlochinining ifodalananayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik-semantik kategoriya. U orqali fikr mazmuni real yoki noreal, qat'iy va sh.k.

tarzda tasavvur etilishi mumkin. Modallik so‘z, qo‘sishchasi, yuklama va ohang orqali ifodalanishi mumkin. Mas, yoza olmoq (ol yordamida yasalgan shakl qodirligini ma’nosini bildiryapti), albatta keladi (albatta so‘zi qat’iy ishonch ifodalayapti), ko‘rganov (-ov yuklamasi gumon bildiradi) va b”[8, 64-65]. Mazkur lug‘atda fikrning vogelikka bo‘lgan munosabatini ko‘rsatuvchi ma’nolar va bu ma’nolarning ifodalanish tizimi modallik kategoriyasi deb atalishi, modal ma’no esa modal so‘z yoki modal shakllar orqali ifodalanishi ta’kidlangan. Azim Hojiyev so‘zning modal ma’no ifodalovchi shakliga o‘zbek tilidagi otning kichraytish-erkalash shakllari(qizaloq, qo‘zichoq kabi), fe’lning modal ma’no ifodalovchi ko‘makchi fe’llar yordamida yasaluvchi shakllari (ayta qol, bora ko‘rma kabi)ni kiritadi. Olim so‘zlovchining o‘zi ifodalayotgan fikrga turli munosabatni bildiruvchi ma’nolarni ifodalovchi so‘z turkumi va shu turkumga oid so‘z: *haqiqatan, albatta, chamasi, darvoqe* kabilarni modal so‘zlarga kiritadi [8, 64-65].

R.Qo‘ng‘urovning “Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari” nomli monografiyasida modallik tushunchasi juda keng hodisa ekanligi ta’kidlanadi va modal munosabatning fonetik, leksik yo‘llar bilan ifodalanishi ham misollar bilan izohlanadi [7, 37; 54]. Ushbu monografiyada “subyektiv baho formalari” nomi bilan, asosan, ot va sifat tarkibida o‘rganilib kelayotgan -gina, -choq, -cha, chik, loq, jon tipidagi shakllar ham so‘zlovchining obyektiv borliqqa, o‘z nutqiga bo‘lgan munosabatini ifodalashi aytildi [7, 33]. R. Qo‘ng‘urov ayrim so‘zlarning ham (masalan, gul, oy, chiroq, yo‘lbars, bo‘ta, qo‘zi, g‘uncha kabi) ba’zan ko‘chma ma’noda, ba’zan egalik affikslari bilan birgalikda modal ma’nolarni ifodalashga xizmat qilishi haqida aytib, misollar bilan asoslab beradi [7, 33-35].

A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixo‘jayevalarning “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi” kitobida modallik, uning turlari, predikativlik va modallik xususida ilmiy-nazariy ahamiyatga ega fikr-mulohazalar bildirilgan. Bu kitobda modallik gap semantikasining eng muhim komponentlaridan ekanligi, modallik ma’nosini til sistemasining turli sathlarida kuzatilishi, modallikning ifodalovchi vositalarning rang-barangligi va hatto tillarda turlicha ekanligi aytib o‘tiladi. Mazkur monografiyada turkiy tillar materiallari asosida quyidagi modallik vositalari kiritiladi: mayl, zamon va shaxs qo‘sishchalar, gapning alohida qurilmalar, yuklamalar, so‘z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so‘roq olmoshlari, undalmalar, kirish so‘z va gaplar. Modallik kategoriyasi ostida xilma-xil vositalar: morfologik, leksik, sintaktik, fonetik vositalar kiritilishi va bu ayrim e’tirozlarning tug‘ilishiga sababchi bo‘lganligi aytildi [4, 82-83]. Bundan tashqari ushbu kitobda obyektiv va subyektiv modallik, ularning farqi, shu bilan bir qatorda uzviy bog‘liqligi, ma’no munosabati, ifodalanishi misollar bilan izohlangan [4, 88-89].

S.Boymirzayevaning “O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar” nomli doktorlik dissertatsiyasining 2-bobi matn kommunikativ-pragmatik mazmunida modallik” deb nomlanib, ushbu bobda modallik hodisasi, modallik turlari, modallikning matn mazmunida vogelanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. [1, 14-20]. S.Boymirzayeva modallikning umumlisoniy kategoriya ekanligini, unga xos ma’no-mazmunning grammatika hududidan chiqib, muloqot birliklari tarkibida namoyon bo‘lishini ta’kidlab, quyidagi fikrlarni keltiradi: “Lisoniy faoliyatda “so‘zlovchi shaxs omili” muhim rol o‘ynashini e’tirof etadigan bo‘lsak, modal munosabatlarning ifodalanishini so‘zlovchining yaxlit kommunikativ birlik – matn mazmuniga bo‘lgan munosabatidan izlash lozim bo‘ladi. Xuddi shuningdek, matn mazmunining vogelikka bo‘lgan munosabati ham so‘zlovchi (muallif)ning ushbu vogelikni idrok etish jarayonida tug‘iladigan individual munosabatidir” [1, 16]. Mazkur tadqiqotda subyektiv modallik turlarining matnda vogelanishi misollar asosida tadqiq etilgan [1, 24-27].

Yulduzxon Mirzaahmedova “Modallik kategoriyasi haqida mulohazalar” maqolasida: V.Vinogradov fikrlariga tayangan holda “modallik” so‘zining lug‘aviy ma’nosini o‘zbekcha his, hissiyot, tuyg‘u, ishonch, xohish, mayl so‘zlarining ma’nosiga mos kelib, nutqda vogelanayotgan fikrga so‘zlovchining moyillik darajasi – mayli qanday ekanligini ko‘rsatadi, – deydi [3, 71.].

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, modallik kategoriyasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, modal ma’nolarni ifodalash yo‘llari ham, modal munosabatni hosil qilishda ishtirok etadigan

vositalar ham bir qancha va ular nutqiy faoliyat jarayonida shakllanadi, ma'lum matnda, muloqot vaziyatida voqelanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Боймирзаева С. Ўзбек тилида матнинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол.фан.доктори... дисс. автореф. –Тошкент, 2010.
2. Ёкубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тilda ифодала-нишининг семантик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2005.
3. Мирзааҳмедова Ю. Модаллик категорияси ҳақида мулоҳазалар. //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. №6. –Б.71-75.
4. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тили-нинг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.
5. Yusupova O., Qurbonova M. Badiiy matnda modallikni hosil qilishda grammatik vositalarning o'rni. – Samarqand: "Fan bulog'i" nashriyoti, 2023.
6. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. II томлик. 1-жилд. – Москва: Рус тили, 1981.
7. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980.
8. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002.